


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib




### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




### Dastlabki maʼlumotlar

Viloyat boʻyicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 358,0** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **648,7** mlrd. soʻmni (**13,0 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 709,3** mlrd. soʻmni (**6,5 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 280,9** mlrd. soʻmni (**10,0 %** ga oshdi) tashkil etdi.

### Tarkibiy qism, ulushlarda




### Uyushmagan savdo, mlrd. soʻm



## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

### UMUMIY MA’LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 358,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,4 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **85,1 %** va yirik korxonalar hissasiga **14,9 %** to'g'ri keldi.


### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **27,5 %** ulush bilan **1 198,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **42,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **3 709,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,5 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **85,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,3 %), Forish (97,4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTALARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	4358,0	107,4	648,7	113,0	3709,3	106,5
Jizzax sh.	1198,2	101,7	147,6	57,4	1050,5	114,1
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	86,0	103,0	1,0	135,0	84,9	102,7
Baxmal	708,1	134,0	444,2	169,9	263,8	98,9
G'allaorol	301,2	103,3	8,0	152,3	293,2	102,4
Sharof Rashidov	668,6	100,1	1,0	125,9	667,6	100,1
Do'stlik	140,5	112,2	5,0	140,3	135,5	111,4
Zomin	585,8	102,8	23,2	128,2	562,6	101,9
Zarbdor	154,4	126,9	4,1	151,3	150,4	126,3
Zafarobod	67,5	101,2	1,1	142,4	66,4	100,7
Mirzacho'l	107,0	106,1	3,4	133,1	103,6	105,4
Paxtakor	153,7	104,0	5,4	31,2	148,3	113,7
Forish	144,9	107,7	3,7	125,5	141,2	107,3
Yangiobod	42,2	104,7	0,8	124,1	41,4	104,4

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

62,7




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,4 %** ga oshdi va **648,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

99,8




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 709,3 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,5 %** ga oshdi. Viloyat miyisosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,1 %** ni tashkil etdi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,3 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,3 %), Forish (97,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (12,3 %), Paxtakor (3,5 %), Baxmal (62,7 %), Zomin (4,0 %) va Do'stlik (3,6 %) tumanlarida kuzatildi.



2021- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 074,0** ming so'm (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,3 %** ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**6 605,0** ming so'm), Baxmal (**4 419,8** ming so'm), Zomin (**3 488,9** ming so'm) va Sharof Rashidov (**2 935,1** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat boʻyicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **724,9** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **34,3 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **219,0** mlrd. soʻmni (oʼzgarish surʼati **5,6 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **505,9** mlrd. soʻmni (oʼzgarish surʼati **19,3 %** ga oshdi) .

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo	<b>724,9</b> mlrd. soʻm, 100 %
Dehqon bozorlari	<b>219,0</b> mlrd. soʻm, 30,2 %
Chorva bozorlari	<b>505,9</b> mlrd. soʻm, 69,8 %

### Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

JIZZAX VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2021- yil yanvar-iyul

2021- yilning yanvar-iyul oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **219,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **505,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdag'i tadbirkorlar (YTT) ni qo'shмаган holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	<b>724,9</b>	<b>134,3</b>	<b>219,0</b>	<b>105,2</b>	<b>505,9</b>	<b>123,3</b>
Jizzax sh.	<b>180,0</b>	<b>207,5</b>	<b>169,2</b>	<b>96,3</b>	<b>10,8</b>	<b>86,9</b>
tumanlar:						
Arnasoy	<b>22,0</b>	<b>112,6</b>	<b>5,0</b>	<b>104,1</b>	<b>17,0</b>	<b>118,9</b>
Baxmal	<b>71,6</b>	<b>105,6</b>	<b>14,2</b>	<b>220,9</b>	<b>57,4</b>	<b>113,7</b>
G'allaorol	<b>71,0</b>	<b>102,5</b>	<b>18,3</b>	<b>53,6</b>	<b>52,7</b>	<b>156,6</b>
Sharof Rashidov	<b>75,5</b>	<b>88,2</b>	<b>0,0</b>	<b>0</b>	<b>75,5</b>	<b>136,4</b>
Do'stlik	<b>34,0</b>	<b>174,5</b>	<b>13,8</b>	<b>71,9</b>	<b>20,2</b>	<b>127,7</b>
Zomin	<b>106,6</b>	<b>117,4</b>	<b>37,5</b>	<b>76,4</b>	<b>69,1</b>	<b>189</b>
Zarbdor	<b>60,1</b>	<b>212,7</b>	<b>6,9</b>	<b>84,7</b>	<b>53,2</b>	<b>137,6</b>
Zafarobod	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>
Mirzacho'l	<b>20,9</b>	<b>128,7</b>	<b>8,0</b>	<b>100,7</b>	<b>13,0</b>	<b>115,4</b>
Paxtakor	<b>36,5</b>	<b>188,6</b>	<b>10,4</b>	<b>99</b>	<b>26,2</b>	<b>120,6</b>
Forish	<b>32,5</b>	<b>125,9</b>	<b>12,9</b>	<b>98,9</b>	<b>19,7</b>	<b>124</b>
Yangiobod	<b>14,1</b>	<b>129,7</b>	<b>1,4</b>	<b>63,5</b>	<b>12,7</b>	<b>102,3</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



Tuzlamalar

3,7 mldr.  
so'm



Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

81,8  
mldr. so'm



5,7  
mldr. so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

35,9  
mldr. so'm



Non va non  
mahsulotlari



9,5  
mldr. so'm

16,6  
mldr. so'm



Sut va sut  
mahsulotlari

Tuxum

27,0  
mldr. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

12,0  
mldr. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

4,9  
mldr. so'm



Ziravorlar

17,2  
mldr. so'm



Tovuq go'shti

1,6  
mldr. so'm




Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **219,0** mldr. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**81,8** mldr. so'm) to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **505,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosи **354,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **139,1** mlrd. so'mni, otlar **9,7** mlrd. so'mni, parrandalar **2,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



## **UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 % ni tashkil etib, **69,1** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,2** % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	69093,4	104,2	69093,4	104,2
Jizzax sh.	33786,5	104,4	33786,5	104,4
tumanlar:				
Arnasoy	493,5	102,1	493,5	102,1
Baxmal	1303,0	101,9	1303,0	101,9
G'allaorol	4240,9	103,9	4240,9	103,9
Sh. Rashidov	12255,4	104,4	12255,4	104,4
Do'stlik	2357,1	103,9	2357,1	103,9
Zomin	4762,5	104,0	4762,5	104,0
Zarbdor	2142,6	104,2	2142,6	104,2
Zafarobod	624,5	102,8	624,5	102,8
Mirzacho'l	2704,7	104,7	2704,7	104,7
Paxtakor	2255,2	104,2	2255,2	104,2
Forish	1744,5	103,8	1744,5	103,8
Yangiobod	423,1	103,3	423,1	103,3

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 183,6 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **302,7 mlrd. so'mni** (**16,1 %** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **880,9 mlrd. so'mni** (**0,7 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi


Ulgurji savdo	<b>1 183,6 mlrd. so'm, 100 %</b>
Yirik korxonalar	<b>302,7 mlrd. so'm, 25,6 %</b>
Kichik korxonalar	<b>880,9 mlrd. so'm, 74,4 %</b>

### Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (134,2 %), Baxmal (235,1 %) va Do'stlik (484,7 %) tumanlarida kuzatildi.



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1183,6	103,1	302,7	116,1	880,9	99,3
Jizzax sh.	655,5	106,0	160,4	134,2	495,2	99,2
tumanlar:	0,0		0,0		0,0	
Arnasoy	2,0	18,1	0,0	0,5	2,0	97,0
Baxmal	103,6	186,0	83,4	235,1	20,1	99,6
G'allaorol	30,5	103,5	0,2	21,9	30,3	105,7
Sh. Rashidov	68,9	84,0	0,1	0,5	68,9	97,4
Do'stlik	110,0	183,1	57,6	484,7	52,3	108,6
Zomin	113,8	94,3	0,0	0,6	113,8	98,3
Zarbdor	14,5	36,8	0,0	0,1	14,4	96,9
Zafarobod	7,8	35,6	0,2	1,2	7,6	95,1
Mirzacho'l	2,9	15,7	0,1	0,6	2,8	96,0
Paxtakor	10,7	44,0	0,3	1,9	10,5	98,3
Forish	58,0	95,8	0,3	128,5	57,7	95,7
Yangiobod	5,4	93,0	0,1	29,5	5,4	95,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **880,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **0,7 %** ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **74,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0 %**), Yangiobod (**99,0 %**), G'allaorol (**99,4 %**), Forish (**99,5 %**), Sharof Rashidov (**99,9 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**19,4 %**), Do'stlik (**47,6 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar
2020- yil Yanvar-iyun	
2021- yil Yanvar-iyun	



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26